

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Himoyaga  
«Multimedia texnologiyalari»  
Kafedrası mudiri

\_\_\_\_\_

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2016y.

**BAKALAVR BITIRUV ISHI**

**mavzu: “JSP va JFX texnologiyalarini o‘rgatuvchi avtomatlashtirilgan  
ilova yaratish”**

Bitiruvchi \_\_\_\_\_ Shamsiyev M.T.

Rahbar \_\_\_\_\_ G‘aybullayev A.G‘.

XFXdan  
maslahatchi \_\_\_\_\_ Sapayev M.S

Taqrizchi \_\_\_\_\_ Lutfillaev M.X

**Toshkent 2016**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Fakultet Axborot texnologiyalari kafedra «MT»

Yo‘nalish **5330200** – Informatika va axborot texnologiyalari

**TASDIQLAYMAN**

«Multimedia texnologiyalari»

kafedrası mudiri

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2016y.

Bitiruv ishni bajarishga

**TOPSHIRIQ**

Shamsiyev Mirshod Teshayevich

mavzu: “JSP va JFX texnologiyalarini o‘rgatuvchi avtomatlashtirilgan ilova yaratish”

1. Mavzu universitet 17.11. 2016 y. № 11-55 qarori bilan tasdiqlangan
2. Ishni to‘liq bajarish uchun berilgan vaqt 30 may 2016y.
3. Ishning boshlang‘ich ma‘lumotlari: ma‘ruzalar, chop etilgan texnik adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar, internet-saytlar.
4. Hisob tushuntirish matni mundarijasi (ishni bajarishdagi maslahatlar ro‘yhati): 1. java dasturlash tili texnologiyalarini masofaviy o‘rgatishni tashkil etish usullari 2. jsp va jfx texnologiyalarini o‘rgatuvchi avtomatlashtirilgan ilovani yaratish jarayoni. 3. Hayot faoliyati xavfsizligi.

5. Ishning boshlang'ich ma'lumotlari: ta'rif, internet materiallar, ma'lumotnomali qo'llanmalar.

6. Grafik materiallar ro'yhati: rasmlar, sxemalar, jadvallar.

7. Topshiriq berilgan sana \_\_\_\_\_

Rahbar \_\_\_\_\_

Topshiriq oldi \_\_\_\_\_

8. BMI ning alohida bo'limlari bo'yicha maslahatchilar

Bo'limning nomlanishi	Maslahatchi	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq Oldi
Asosiy qism	G'aybullayev A.G'.		
Hayot faoliyati xavfsizligi va Ekalogiya	Sapayev M.S		

9. Ishni bajarish grafigi

	Bo'limlarning nomlanishi	Bajarish muddati	Rahbar imzosi (maslahatchi)
.	Adabiyotlarni to'plash va tahlil qilish		
.	Java dasturlash tili texnologiyalarini masofaviy o'rgatishni tashkil etish usullari.		
.	Jsp va jfx texnologiyalarini o'rgatuvchi avtomatlashtirilgan ilovani yaratish jarayoni.		

.	Hayot faoliyati xavfsizligi va Ekologiya		
.	Taxminiy himoyaga tayyorgarlik		
.	Himoyaga tayyorgarlik		

Bitiruvchi \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2016 y.

Rahbar \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2016 y.

Ushbu bitiruv ishida java dasturlash tilining JSP va JFX texnologiyalarini o'rgatuvchi tizim yaratilgan. Bu ilova yosh dasturchilar va axborot texnologiyalari sohasiga qiziquvchilarga veb ilovalar va dasturiy ta'minotlar yaratishni o'rgatadi. Bundan tashqari ilova yordamida yosh dasturchilar so'nggi axborot texnologiyalari yangiliklaridan xabardor bo'lishlari va o'zlari qiziqtirgan savollarga javob olishlari mumkin.

Это выпускной работе был разработан автоматизированной системы специализированной для обучения JSP и JFX технологии языка программирования Java. Эта автоматическая система была разработана в качестве веб-приложения с использованием языка программирования PHP. База данных этой автоматической системы образования была создана с помощью системы управления базами данных MySQL. Развитие этой автоматической системы должна помочь пользователям научиться легко JSP и JFX технологии языка программирования Java

This Graduate work is devoted to development development of automatic system specialized for teaching Java programming language's Servlet and Hibernate technologies. This automatic system has been developed as a web application using PHP programming language. Database of this automatic educational system was structured using MySQL database management system. Development of this automatic system should help users to learn Java programming language's JSP and JFX technologies easily.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	7
<b>I BOB. JAVA DASTURLASH TILI TEXNOLOGIYALARINI MASOFAVIY O'RGATISHNI TASHKIL ETISH USULLARI</b> .....	10
1.1. Java dasturlash tilining JSP va JFX texnologiyalari .....	10
1.2. Masofaviy ta'limni tashkil etish usullari.....	11
1.3. JSP va JFX texnologiyalarini o'rgatuvchi avtomatlashtirilgan tizimini loyihalashda dasturiy vositalar.....	22
<b>II BOB. JSP VA JFX TEXNOLOGIYALARINI O'RGATUVCHI AVTOMATLASHTIRILGAN DASTURIY TA'MINOT</b> .....	40
2.1. Web ilovaning strukturasi ishlab chiqish .....	40
2.2. Ilova ma'lumotlar ba'zasini shakllantirish.....	42
2.3. Avtomatlashtirilgan ilovaning interfeysi va xususiyatlari .....	44
<b>III BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIYA</b> .....	50
3.1. Suvning ifloslanishi va ta'siri.....	50
3.2. Yong'in va undan himoyalalanish.....	53
3.3. Favqulotda hodisalar va uning turlari.....	57
<b>XULOSA</b> .....	63
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI</b> .....	64
<b>ILOVA</b> .....	

## KIRISH

O'zbekistonning taraqqiyot yo'li, bu - demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yo'lidir. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz –mamlakatimizni buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham - bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir. Har bir xalq, har bir millatning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog'liqdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov 2012 yil fevral oyida bo'lib o'tgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti“ mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqida “Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo'liga qadam qo'yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o'tishni ta'minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran angelaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlarga o'z oldimizga qo'ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishish mumkin ekanini hamisha o'zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz. Ta'lim tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va grajdanlik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi” – deb ta'kidlagan edilar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimiga yo'naltirilayotgan katta hajmdagi investitsiyalar O'zbekistonning eng ilg'or mamlakatlar qatoridan joy olishiga zamin yaratmoqda. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarini moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha

2011-2016 yillarga mo'ljallangan dasturni amalga oshirish uchun 277 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirish ko'zda tutilgan.

XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan, biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Pedagoglardan, bugungi murakkab zamonda yoshlarga zamon ruhida ta'lim berish bilan bir qatorda, bashariyatning, Vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini o'ylab, yoshlarni ezgulikska, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshirishi talab etiladi.

Jamiyatni axborotlashtirish bu fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun optimal shart sharoitlarni yaratish, fuqarolar davlat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat tashkilotlarining huquqlarini amalga oshirishda axborot tizimlarini tashkillashtirish va foydalanishdagi ilmiy texnik hamda maishiy iqtisodiy jarayonlarni tashkillashtirishdir. Axborotlashtirish jarayoni keng qamrovli bir necha loyihalarni o'z ichiga oladi, shuning uchun ham ijtimoiy jarayonni amalga oshirishda har bir davlat o'zining iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda amalga oshirishi mumkin.

Axborot tizimining asosiy vazifasiga berilgan turdagi axborotni izlash, uni karta ishlash va kiska vaqt ichida kerakli joyga uzatish masalalarini xal qilish kiradi. Kompyuter axborot tizimi bilan samarali ishlaydigan elektron kurilmadir

Shaxsiy kompyuterlar hisoblash texnikasining yangi turdagi vositasi hisoblanadi. Ular yuqori darajada pishikligi, ixcham ko'rinishi, kam energiya sarflashi va mobilligi bilan ajralib turadi.

**Bitiruv ishining dolzarbligi.** Hozirgi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va samarali foydalanishni amalga oshirish bo'yicha bir qancha ishlar amlaga oshirilmoqda. Jumladan masofaviy talimni joriy etish va bunda veb saytlarning o'rni alohidadir. Shu sababli Java dasturlash tilining JSP va JFX texnologiyalarini yosh dasturchilarga o'rgatish veb saytimizning asosiy maqsadidir.

**Bitiruv ishining maqsadi.** Ushbu bitiruv ishdan maqsad masofaviy talimni xayotga qo'llagan holda interaktiv darslikning veb saytini yaratish va veb sayt orqali zarur ma'ulumotlar almashishini amalga oshirish. Java dasturlash tilining JSP va JFX texnologiyalarini yosh dasturchilarga o'rgatish veb saytminning asosiy maqsadidir.

**Bitiruv ishining vazifasi.** Maqsaddan kelib chiqqan holda bitiruv ishini bajarish uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan.

- Foydalanuvchilarga JSP texnologiyasini o'rgatish orqali veb dasturlar yaratishda yordam berish
- Yosh dasturchilarga JFX texnologiyasini o'rgatish orqali dasturiy ta'minotlar yaratishda yordam berish
- So'nggi yangiliklar va zamonaviy texnologiyalar haqida ma'lumot berish
- Axborot texnologiyarga qiziquvchilar qiziqtirgan savollariga javob berish

# **I BOB. JAVA DASTURLASH TILI TEXNOLOGIYALARINI MASOFAVIY O'RGATISHNI TASHKIL ETISH USHLUBLARI**

## **1.1 Java dasturlash tilining JSP va JFX texnologiyalari**

Java dasturlash tili — eng yaxshi dasturlash tillaridan biri bo'lib unda korporativ darajadagi mahsulotlarni(dasturlarni) yaratish mumkin.Bu dasturlash tili Oak dasturlash tili asosida paydo bo'ldi. Oak dasturlash tili 90-yillarning boshida Sun Microsystems tomonidan platformaga(Operatsion tizimga) bog'liq bo'lmagan holda ishlovchi yangi avlod aqlli qurilmalarini yaratishni maqsad qilib harakat boshlagan edi. Bunga erishish uchun Sun hodimlari C++ ni ishlatishni rejalashtirdilar, lekin ba'zi sabablarga ko'ra bu fikridan voz kechishdi.Oak muvofaqiyatsiz chiqdi va 1995-yilda Sun uning nomini Java ga almashtirdi, va uni WWW rivojlanishiga hizmat qilishi uchun ma'lum o'zgarishlar qilishdi.

Javada midlet yasalgandan so'ng JAR va JAD fayl hosil bo'ladi. JAR (Java ARchive) - bu o'zida .class fayllarni va dastur resurslarini saqlovchi arxiv fayl. Bu maxsus arxivator talab qilmaydiga oddiy zip arxiv. Arxivda dasturni tavsiflovchi MANIFEST.MF nomli fayl mavjud, u: dastur nomi, hajmi, fayl ikonkasi manzili va boshqalarni o'zida saqlaydi. Arxivga bir necha midletlarni ham joylashtirish mumkin, lekin odatda bunday qilinmaydi. JAD (JAVa Descriptor) - bu java arxiv haqidagi ma'lumotlarni o'zida saqlovchi matnli fayl, lekin u JAR arxivdan alohida bo'lib, shu yo'sinda arxivni ko'chirmasdan turib u haqda ma'lumot olish mumkin. Ulardan yuklashdagi farq imzolangan sertifikatlarda: sertifikat JAD faylda saqlanadi va usiz dastur sertifikatlanmagan hisoblanadi.

Java Obyektga Yo'naltirilgan Dasturlash(OOP-object oriented programming) tili va u C++ ga ancha o'xshash.Eng ko'p yo'l qo'yildigan xatolarga sabab bo'luvchi qismlari olib tashlanib, Java dasturlash tili ancha soddalashtirildi.

Java kod yozilgan fayllar(\*.java bilan nihoyalanuvchi) kompilatsiyadan keyin bayt kod(bytecode) ga o'tadi va bu bayt kod interpretator tomonidan o'qib yurgizdiriladi.

JavaServer Pages(JSP) – server-side dasturlash texnologiyasi bo'lib, dinamik va mustaqil platformali web application lar yaratishga yordam beradi. JSP to'laqonli JAVA API lar oilasiga tegishli. Bu kurs sizga JSP yordamida oson va tez web dasturlar yaratishga yordam beradi.

JavaServer Pages web-sahifalarni yaratish uchun qo'llaniladigan texnologiyalardan biri. HTML sahifalarga Java kod larni qo'shish orqali dinamik ilovalar yaratish uchun yordam beradi. Bu asosan “ bilan tugaydigan teglar yordamida amalga oshiriladi.

JSP konteyner JRE(Java Runtime Environment) va JSP uchun kerak bo'ladigan boshqa xizmatlar bilan ta'minlangan Web Server bilan birga ishlaydi.

JFX – Java FX desktop ilovalar bilan ishlash uchun yaratilgan texnologiya.

Java dasturlash tilida Swing ham mavjud bo'lib bu texnologiya ham shu vazifani bajaradi. JFX bilan Swing orasida bir nechta farqlar mavjud. Bulardan biri, Swing da barcha komponentalar qo'lda ya'ni kod orqali kiritiladi. Java FX da esa bu oddiy amalga oshiriladi. Bu esa yaratilayotgan dasturda bir nechta qulayliklarni keltirib chiqaradi. Bular vaqtdan yutish va bajarilayotga amallarni tezda visual holda ko'rish imkoniyatidir.

## **1.2 Masofaviy ta'limni tashkil etish usullari**

Masofaviy ta'lim asosida o'qitish tizimini tashkil etishda quyidagi asosiy prinsiplarni hisobga olish talab etiladi .

- masofaviy ta'lim o'quv jarayonini loyihalashda pedagogik yo'nalishning ustuvorligini ta'minlash. Ushbu prinsipning mohiyati shundaki, masofaviy ta'lim asosida o'qitish tizimini loyihalashda birinchi navbatda ta'lim jarayonining didaktik modelini ishlab chiqilib, loyihaning pedagogik tomoni ustuvor hisoblansa samarali bo'ladi;

- qo'llaniladigan yangi informatsion texnologiyalarni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqlik prinsipi;

- ta'lim mazmunini tanlash prinsipi, ya'ni masofaviy ta'limdagi o'quv kurslari va fanlar mazmunini DTS talablariga mos kelishi;
- asofaviy ta'limda uzatiladigan yoki olinadigan axborotlar xavfsizligini ta'minlash prinsipi;
- boshlang'ich bilim darajasining bo'lishi shartligi prinsipi;
- o'qitish texnologiyasining mos kelish prinsipi;
- o'qitishni mobil xarakterda bo'lish prinsipi;
- masofaviy ta'limni mavjud an'anaviy ta'lim shakliga qarshi bo'lmaslik prinsipi.

**Masofaviy ta'limni tashkil etish shakllari.** Chat-mashg'ulotlar – chat texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan o'quv mashg'uloti. Chat mashg'ulotlar sinxron amalga oshiriladi, ya'ni barcha qatnashuvchilar chatga bir vaqtda kiradilar. Buning uchun masofaviy o'quv markazi(yurti) da chat kabinetlar tashkil etiladi.

Veb-mashg'ulotlar – telekommunikatsiya va boshqa vositalar yordamida anjuman, seminar, ish o'yinlari, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar shaklida amalga oshiriladigan masofaviy mashg'ulotlar. Veb-mashg'ulotlar uchun maxsus ta'lim veb-forumlaridan foydalaniladi. Ushbu o'quv shaklining chat-mashg'ulotlardan farqi, mashg'ulotlar asinxron shaklda amalga oshiriladi, ya'ni foydalanuvchilar o'z ma'lumotlarini yozib qoldirishadi. Bunda talaba va pedagog o'rtasidagi o'zaro muloqat uzoq muddatda bo'lishi mumkin.

Telekonferensiya – elektron pochta yordamida ma'lumot va axborotlarni yuborish orqali amalga oshiriladi. Bunday o'qitish tizimi “O'qitishning tabiiy jarayoni”, (“Natural Learning Manner”) deb nom olgan.

Teleqatnashuv. Bunga R.Bot 100 robot yordamida masofaviy ta'limda ishtirok etishni misol qilish mumkin. Masalan, Moskva shahri maktablarida ushbu robot yordamida nogiron bolalarni masofaviy ta'lim asosida o'qitish tajriba sifatida amalga oshirilmoqda. Nogiron talaba uyda kompyuter yonida turib robot yordamida eshitib, ko'rib, gaplashib bilim oladi. O'qituvchi savollar beradi, u javob beradi. Xuddi

shuningdek robot monitori yordamida o'qituvchi ham talabani ko'rib turadi va talabada guyo o'z tengdoshlari orasida auditoriyada o'tirgandek taasurot uyg'onadi. Tanaffusda u o'z tengdoshlari bilan muloqat qilishi ham mumkin.

Masofaviy ta'limda o'quv jarayonini tashkil etish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirilishi mumkin:

- Kurs maqsadlarini aniqlash. Qaysi bilimlarni (mavzular, fan va b) berish va kimlarni o'qitish kerakligi aniqlanadi.

- O'qitish uslublarini tanlash. O'quv jarayoni davomida bilimlar va ko'nikmalar darajasining diagnostikasini amalga oshirish hamda tekshirish manbalari va usullarini aniqlash kerak.

- O'quv materialiga uslubiy talablarni ishlab chiqish. Yangi bilimlarni berish usullarini va hajmlarni aniqlash kerak.

- Dars jadvalini ishlab chiqish. Butun kursni bir nechta modullarga bo'lish, har bir modul tugagandan keyin talaba qanday bilimlarga ega bo'lishi kerakligini aniqlash lozim.

- O'quv jarayoni monitoringini tashkil etish.

- Tekshiruv jarayonlarini rejalashtirish,

- Talabalarning mustaqil ishlarini rejalashtirish,

- O'quv jarayoni natijalarini oldindan baholash;

- Natijalarni aniqlash va tahlil qilishning dasturiy ta'minoti.

Masofaviy ta'limni tashkil etishda bevosita turli toifadagi xodimlar, professor - o'qituvchilar va dasturiy ta'minot guruhi talab etiladi. Masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etuvchilarni quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

- masofaviy kurs muallifi;

- uslubchi;

- o'qituvchi (tyutor, koordinator);

- administrator;

- hujjat yurituvchi;

- telekommunikatsiya va dasturiy ta'minot guruhi.

Muallif - masofaviy kursni yaratuvchi, uni yangilovchi va tahrirlovchi shaxs.

Uslubchi - masofaviy kurs muallifiga maslahatlar beruvchi va kursni tahrirlovchi shaxs.

O'qituvchi - talabalar bilan o'qish jarayonida muloqotda bo'luvchi va ularga yordam beruvchi hamda ularning bilimlarini tekshiruvchi shaxs.

Ruhshunos - o'qish jarayonining psixologik monitoringni tashkil qiluvchi shaxs.

Administrator - talabalarni qabul qilish va o'qishdan chetlashtirish masalalarini hal qiluvchi va o'quv jarayoniga malakali o'qituvchilarni jalb qiluvchi shaxs.

**Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari** – tanlangan o'qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv-tarbiyaviy jarayonini ta'minlovchi o'qitish uslublari majmuasidir. Masofaviy o'qitishning ta'lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari

mavjud bo'lib, ular quyidagi qo'llanish shartlari bilan farqlanadi:

- geografik shartlar (masalan, mamlakat hududi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);

- mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;

- kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;

- ta'lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo'llanish darajasi;

- ta'limda qo'llaniladigan an'analar;

- masofaviy o'qitish tizimi uchun ilmiy- pedagog kadrlarning mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

Masofaviy ta'lim asosan quyidagi texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi:

Reproduktiv texnologiyalar. Reproduktiv texnologiyalar o'quv materiallarini tarqatish orqali amalga oshiriladi. Texnologiyaning asosiy maqsadi – o'quv-metodik

materiallarni o'quvchiga jo'natish. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqat elektron pochta orqali amalga oshiriladi.

Interaktiv texnologiyalar. Masofaviy ta'limning ushbu texnologiyasi yakka shaxsga yo'naltirilgan o'qitish modeliga asoslangan. Interaktiv texnologiyaga misol tariqasida Keys texnologiyalarini keltirish mumkin. Bunda tarmoqda o'qiyotganlarga ma'lum fan bo'yicha to'liq o'quv-uslubiy materiallar (o'quv dasturlari, o'quv materiallari, o'z-o'zini tekshirish topshiriqlari va b.) yetkazib beriladi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqat elektron pochta orqali amalga oshiriladi. Birgalikdagi ta'lim texnologiyalari. Mazkur texnologiyada o'qish kichik o'quv guruhlarida olib boriladi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ko'p funksiyali, jamoaviy foydalaniladigan, axborotni jo'natish texnik vositalari yordamida virtual muhit yaratiladi. O'quvchilarning jamoaviy harakati o'qituvchi nazorati ostida bo'ladi.

Texnologik platformalar. Masofaviy ta'lim platformalari deyilganda, masofaviy ta'lim xizmatiga qaratilgan o'quv jarayonini boshqarish va amalga oshirishni o'z ichiga olgan dasturiy-texnik vositalar majmui tushuniladi. Bugungi kunda masofaviy ta'lim texnologik platformalari "TV-texnologiya", "Keys texnologiya", "Tarmoq texnologiya" ko'rinishida amalga oshirilmoqda.

Telekommunikatsion (TV) texnologiya. TV-texnologiyada o'quvchilarga o'quv-uslubiy materiallarni yetkazish va doimiy o'qituvchi-tyutor maslahatini tashkillashtirish maqsadida televideniye tizimidan foydalanish ko'zda tutiladi. Televideniye va teleko'priklardan foydalanib "jonli" mashg'ulotlar tashkil etish mumkin.

Keys-texnologiyalari. Keys texnologiyalari matn, audioko'rinishli va multimedia o'quv –uslubiy materiallar to'plami (keys)dan foydalanish va o'quvchilarga mustaqil o'rganishlari uchun o'qituvchi-tyutor tomonidan doimiy maslahatlarni berishga asoslangan.

Tarmoq texnologiyalari. Tarmoq texnologiyalari, telekommunikatsiya tarmoqlaridan o'qituvchi va o'quvchi bilan o'zaro bog'liqdagi har xil interaktiv

darajali va o'quvchilarni o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash uchun qo'llaniladi. Tarmoq texnologiyalari asinxron va sinxron turlarga bo'linadi.

Asinxron tarmoq texnologiyalari. Hozirgi kunda ta'lim tizimimizda ko'proq asinxron texnologiyalarning ikki guruhidan foydalanilmoqda:

- Computer-Based training (SVT) – turli darajali interaktivlikdagi kompyuter o'rgatuvchi dasturlar vositasidagi mustaqil ta'lim.

- Web-Based training (WBT)- turli darajali interaktivlikdagi kompyuter o'rgatuvchi dasturlar asosidagi mustaqil va jamoaviy ta'lim.

Sinxron tarmoq texnologiyalari. Zamonaviy masofaviy ta'lim texnologiyasi bo'lib, bunda ta'lim ishtirokchilari o'quv jarayonida bir-biridan uzoq hududda joylashgan bo'ladi. Sinxron texnologiyalar videokonferensiya vositalari va birgalikda ishlash qo'shimcha jihozlaridan foydalangan holda virtual sinflar yaratishga asolangan. Sinxron texnologiyalar bir vaqtning o'zida virtual sinfdagi barcha o'quvchilarning qatnashishlarini talab qiladi va bir mashg'ulot davomida o'qitishning turli modellarini birga qo'shib olib borish imkiniyatini yaratadi. Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalari quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

INTERAKTIV texnologiyalar:

- Internet masofaviy ta'lim portali.
- Video va audio konferensiyalar.
- Elektron pochta orqali ta'lim.
- Internet orqali mustaqil ta'lim olish.
- Masofadan boshqarish tizimlari.
- Onlayn stimulyator va o'quv dasturlari.
- Test topshirish tizimlari.

INTERAKTIV bo'lmagan texnologiyalar:

- Video, audio va bosma holda chop etilgan materiallar.
- Televizion va radio ko'rsatuvlar.
- Disklarda joylashgan dasturlar.

Video va audio konferensiyalar - bu Internet va boshqa telekommunikatsion aloqa kanallari yordamida ikkita, uzoqlashgan auditoriyalarni telekommunikatsion texnologiyalar orqali bir- biri bilan bog'lab ta'limni tashkil etish yo'li. Lekin, video va audio konferensiyalar uchun katta hajmda maxsus texnika, yuqori tezlikga ega bo'lgan aloqa kanali va o'qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish zarur bo'ladi.

Internet orqali mustakil ta'lim olish - bu ko'pgina Internet saytlarida joylashgan katta hajmdagi ma'lumotlar ustida mustaqil ravishda ishlash va yangi bilimlar olish yo'li. Elektron pochta orqali ta'lim esa eng ommaviy Internet xizmatlaridan foydalanib, talaba va o'qituvchi o'rtasida xatlar orqali muloqot o'rnatib ta'lim olish yo'li. U yordamida xar xil test, topshiriq, savol-javob va ko'rsatmalarni (matn, grafika, multimediya, dasturlar va boshqa ko'rinishlarda) jo'natib qabul qilishimiz mumkin.

Uzoqdan boshqarish tizimlari - murakkab dastur, tizim va uskunalarni real holatda boshqarish va ularda ishlash imkoniyatlarini yaratuvchi maxsus tizimlar yordamida bilim olish yo'li. Uzoqdan boshqarish tizimlarning asosiy vazifasi talabaga faqatgina amaliy bilimlarni berishdan iboratdir.

Stimulyator, elektron darsliklar va o'quv dasturlar - bu asosan nazariy va amaliy bilimlarni kompyuter dasturlari orqali talabalarga on-layn holatida uzatish yo'li. Stimulyator va elektron darsliklar hozirgi kunda ta'lim sohasida juda keng qo'llanilyapti.

Test topshirish tizimlari - bu maxsus dasturlar yordamida talabalarning amaliy va nazariy bilimlarini tekshirib, baholashda foydalaniladi.

Internetning masofaviy ta'lim portali - bu maxsus Internet saytlar (on-layn resurslar). Ushbu saytlarning asosiy vazifasi - ta'lim jarayonini tashkil qilish yoki talaba va o'qituvchi o'rtasida elektron on-layn muloqotni o'rnatish, o'qituvchilarga o'quvmateriallarini saytga kiritish, talabalarga ushbu ma'lumotlar ustida ishlashga

hamda boshqa masofaviy ta'lim servislaridan foydalanishga imkoniyat yaratishdan iboratdir.

Masofaviy ta'lim texnologiyasini tanlash va masofaviy ta'limda o'quv jarayoni. Texnologiyaning hammabop erkin foydalanish imkoniyatining mavjudligi uni tanlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. U asosan tanlangan guruh tarkibi va o'quv muhitiga (foydalanuvchi joylashgan joy: uy, ish joyi, universitet, o'quv markazi) bog'liq bo'ladi. Shu sababli, o'quv guruhining barcha a'zolari uchun texnologiya qulay bo'lishi, foydalanuvchilardan qo'shimcha vositalar talab etmasligi zarur. Masofaviy ta'lim texnologiyasini tanlashda Beytsning quyidagi 12 ta oltin qoidasiga amal qilish talab etiladi

- yaxshi ta'lim berish ko'p ma'noni anglatadi;
- har qanday texnologiyaning jalb etuvchi o'z ijobiy tomonlari mavjud;
- ta'lim texnologiyalari moslashuvchan;
- super-texnologiya mavjud emas;
- o'qituvchi uchun barcha vositalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlang;

- barcha turdagi iqtisodiy omillar bilan bog'lanishi zarur;
- o'zaro aloqa va muloqat ahamiyatli;
- talabalar soni – eng asosiy omil;
- yangi texnologiya eski texnologiyadan yaxshi bo'lishi shart emas;
- o'qituvchidan yangi texnologiyadan yanada samarali foydalanishi uchun trening talab etiladi;

- komandaning mavjudligi zarur;
- texnologiya –muammo emas.

Masofaviy ta'limni tashkil etish kurs vazifasini shakllantirish, belgilangan maqsadga javob beruvchi uslubiyot va texnologiyani tanlash hamda quyidagi turli xil o'quv vaziyatlarni yaratishdan boshlanishi lozim.

- hamkorlik pedagogikasi;

- an'anaviy o'qitish;
- o'quv topshiriqlari va amaliyot;
- interaktiv bahslar;
- modellashtirish;
- namoyish etish;
- yangilik kiritish;
- yangiliklarni o'zgartirish
- o'yinlar; masala va muommolarni yechish;
- murabbiylik.

Internet asosida masofaviy ta'limni tashkil etish juda katta rejalashtirish ishlari va tayyorgarlikni talab etadi. Ayniqsa bunday o'quv shaklida o'quv materiallari va dasturlarini tayyorlash MTning asosiy komponenti hisoblanadi (2.1-jadval).

2.1-jadval.

Vaqt chegarasining bo'lmasligi	Pochta xohlagan qulay vaqtda olinishi va o'qilishi mumkin. Talaba va o'qituvchi qat'iy dars jadvalisiz o'zaro bog'lanishi mumkin.
Masofa chegarasining bo'lmasligi	Materiallar xohlagan joyga yuborilishi va olinishi mumkin.
Sinxron o'qitish	O'qituvchi va talabani bir vaqtda o'quv jarayonida qatnashishi ta'minlagan dialogli o'quv shakli.
Asinxron o'qitish	O'qituvchi va talabani bir vaqtda o'quv jarayonida qatnashishini talab etmaydigan dialogli o'quv shakli.
Chiziqli va nochiziq o'quv shakllari	O'qish o'qituvchi tomonidan yoki talaba tomonidan tashkil etilishi mumkin. Matnli yoki gipermatnli o'qish shaklidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday oliy o'quv yurtida masofaviy ta'limni joriy etish murakkab jarayon bo'lib asosan quyidagilarni talab etadi:

1. Professor-o'qituvchilar tarkibini yangi texnologiyalarni tadbiq etishga ma'naviy- ruhiy tayyorlash;
2. Professor-o'qituvchilar tarkibini kompyuter savodxonligi, Internet, yangi axborot texnologiyalari (MS Word, PP, Excel, IE) bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish;
3. Oliy o'quv yurti ichki huquqiy-me'yoriy va reglamentlovchi bazasini ishlab chiqish, joriy etish va MT ni amalga oshirish;
4. Masofaviy ta'lim tizimini, elektron kurslarni sotib olish yoki yaratish;
5. Masalalarini hal qilish;

Oliy o'quv yurtlarida, jumladan TATU Qarshi filialida masofaviy ta'limni to'g'ridan-to'g'ri, birdan hech qanday oldindan tayyorgarlik ishlarisiz tashkil etib bo'lmaydi. Shu sababli Internet texnologiya asosida masofaviy ta'limni tashkil etishda har qanday oliy o'quv yurti oldida masofaviy ta'lim elementlarini o'quv jarayoniga tadbiq etish bo'yicha erishilgan amaldagi tajribalar asosida rivojlangan davlatlarda qo'llaniladigan MT tizimidan farqli quyidagicha aniq vazifalar qo'yilmog'i lozim:

1. Talaba va o'qituvchi o'rtasidagi real bog'lanish vaqtini oshirish.
2. Har bir talaba (talaba) bilan individual ishlash vaqtini ko'paytirish. Bunda MT talabalarining ko'pchiligini yoshi kamida 25 yoshdan yuqori bo'lishini hisobga olib, o'qituvchidan katta yoshdagilarni o'qitish bo'yicha alohida malaka talab etilishini hisobga olish zarur.
3. Talabalarni o'zaro muloqatidagi o'quv muhitini yaratish.

Masofaviy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy- tarbiyaviy masalarni to'g'ri hal etish, ya'ni ta'limni tarbiyadan uzilib qolishiga yo'l qo'ymaslik zarur. (E'tiborga olish lozimki, ko'pgina chet el oliy o'quv yurtlarida ta'lim tarbiya bilan qo'shib olib borilmaydi, birinchi navbatda ta'limga ko'proq ahamiyat qaratishadi.) Oliy ta'lim

muassasasida tashkil etiladigan masofaviy ta'lim aniq o'z maqsad va vazifasiga ega bo'lib, u birinchi navbatda kompyuter savodxonligi, Internet va axborot texnologiyalari bo'yicha kunduzgi shaklda bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmagan aholi qatlami uchun mo'ljallanishi zarur. Loyihaning asosiy xususiyati shundaki, ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchi o'rtasida o'zaro bog'lanish vaqti minimal darajagacha kamaytiriladi. Tashkil etiladigan "Virtual universitet" kunduzgi ta'lim shakli o'quv jarayonidagi ko'pgina jarayonlarni yangi texnologik platformalar yordamida qo'llash imkonini beradi. Talabani har kuni o'qituvchi bilan samarali bog'lanish imkoniyati yaratiladi va bunda o'qituvchini talaba bilan kunduzgi ta'lim o'quv auditoriyasiga nisbatan ham yuqori darajada individual ishlashi ta'minlanadi. Tavsiya etiladigan masofaviy ta'lim tizimida o'qitishning klassik ma'ruzaviy shakli kam samarali bo'lganligi sababli, an'anaviy o'quv shaklidagi ma'ruza mashg'ulotlaridan foydalanilmaydi, ular elektron shakldagi matnli o'quv materiallari bilan almashtiriladi. O'qituvchi bilan bog'lanish elektron o'quv sinflari va konferensiya(chat)lar orqali ta'minlanadi. Bunda o'qituvchi talabaning o'quv ishini unga mavzu bo'yicha yo'llanma va maslahatlar berib tashkil etadi.

O'quv muhiti asosan 2 qismdan iborat bo'ladi:

1. Tashqi – masofaviy Internetda o'qish to'g'risidagi barcha ma'lumotlar (o'quv dasturlari, dars jadvali, o'qish xarajatlari, ruyxatga olish tartibi va b.) berilgan va barcha Internetdan foydalanuvchilar uchun ruxsat etilgan "Internetda-o'qish" saytini yaratish;

2. Ichki- o'quv jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha vositalar majmuiga ega Internet-ilova –"Virtual universitet"ni tashkil etish;

O'quv muhitiga bevosita kirish avtomatlashtirilgan: har bir talaba (foydalanuvchi) o'z familiyasi va ismi bo'yicha ishlaydi va foydalanuvchining o'quv jarayonidagi barcha harakatlari (e'lon qilingan xabarlari, boshqa ishtirokchilar xabarlarini ko'rishi va b) qayd etib boriladi. Har bir foydalanuvchi o'z rasmi yopishtirilgan vizit kartochkasiga ega bo'ladi va unda o'zi to'g'risidagi barcha

ma'lumotlarni ko'rsatadi. Vizit kartochkasi barcha qatnashchilar uchun ruxsat etilgan bo'ladi, foydalanuvchi rasmi uning har bir xabarida joylashtiriladi. Dastlab masofaviy ta'lim tizimiga kirish va o'qishga qabul qilishda foydalanuvchi bilan o'qituvchi tezkor bog'lanadi va "Internetda o'qish asoslari" kursi bo'yicha tanishuv kursi tashkil etiladi. Ushbu tanishuv kursini masofaviy o'qishga da'vogar(abituriyent)larning barchasi o'tishlari shart. Ushbu kursning maqsadi ularga masofaviy o'qish tartib qoidalari, ta'lim muassasasida o'qitish uslubi to'g'risida tushunchalar berish hamda har bir foydalanuvchining shaxsi haqida ma'lumot va tasavurlarga ega bo'lishdan iboratdir.

### **1.3 JSP va JFX texnologiyalarini o'rgatuvchi avtomatlashtirilgan tizimini loyihalashda dasturiy vositalar**

Men ushbu ilovani yaratishda php5, css3, html5, javascript, jquery, bootstrap kabi dasturlardan foydalanganman. Bundan tashqari o'zimga server sifatida denwer ni tanlaganman. Ilovaning bazasi esa mysql ma'lumotlar bazasida joylashgan.

Quyida ushbu foydalanilgan dasturlar haqida ma'lumot berib o'tmoqchiman.

#### **Denwer.**

Ma'lumki, yuqori darajadagi dasturlash tillarida yozilgan dasturlarni kompyuterga tushuntirish uchun kompilyator degan qo'shimcha dastur kerak bo'ladi. Web dasturlashda esa saytlarni ko'rish uchun brauzerlar ishlatiladi.

Web dasturlashda yana shunday tillar ham borki ularni brouzer kompyuterga tarjima qilib tushuntirib bera olmaydi, lekin bunday tillar web saytni asosini tashkil etadi. Ana shunday tillarni brauzer tushunadigan qilib berish uchun ham Web server ga o'xshagan dasturlar (kompilyator yoki interpretatorlar) to'plami kerak bo'ladi. Bunday dasturlar esa sayt joylashgan serverlarda turadi, qachonki unga so'rov yuborilganda masalan: istalgan biror silka bosilganida yoki saytga birinchi tashrif buyurilganda shu sayt joylashgan serverdagi Web server dasturlari saytning brauzer tushunmaydigan kodlarini mashina tiliga o'girib beradi.

Internet tarmog'iga joylashtirilayotgan har bir sayt yaratilish jarayonida lokal serverlarda ishlaydi. Lokal serverlar dasturchi yozayotgan kodlari natijasini brovzerda ko'rish uchun xizmat qiladi.

Bu yerda Klient yani siz tomonda sizning Brauzer va u tushunadigan web dasturlash tillari (HTML,CSS,Java Script) turgan bo'lsa, server tomonda Apache -> Web server, PHP -> PHP tili uchun interpretator va ma'lumotlar ombori bilan ishlash uchun vosita (bu MYSQL, Oracle va boshqalar bo'lishi mumkin) turibdi. Bundan tashqari server tomonida yana boshqa tillar ham bo'lishi mumkin. Hullas, siz qachonki brauzerdan kerakli sayt nomini kiritganingizda bu so'rovingiz DNS serverdan saytga mos IP bo'yicha kerakli serverga boradi, so'rovingiz Brauzerda kiritilgani uchun ham ko'pincha standart HTTP protokoli bo'yicha yuborilgani uchun uni Web server kutib olvchadi va so'rovingizga mos papkadan index faylni qidirib topadi. Undagi bog'lanishlardan kelib chiqib kerakli fayllarni yuklaydi, bu fayllarni kengaytmasiga qaraydi, agar kengaytmasi .html bo'lsa uni shundoq, aks holda masalan .php bo'lsa PHP serverdagi interpretator orqali brauzer tushunadigan tilga tarjima qildiradi(shuni ichida ma'lumotlar bazasidan ham kerakli ma'lumotlar yuklab olinadi) va natijani sizni brauzeringizga jo'natadi. Brauzeringiz o'zi tushunadigan tilda kelgan sayt kodlarini natijasini ekraningizda sizga ko'rsatib beradi va siz tayyor saytni ko'rasiz. Demak, agar web dasturlash bilan shug'ullanaman deydingan bo'lsangiz, minimum: HTML, CSS, JavaScript, PHP, MySQL larni bilishingiz kerak ekan. bunda HTML-> Sayt karkasini yasaydi, CSS-> saytni pardozini(dizaynini) amalga oshiradi, Javascript -> saytni dinamikasi(haraktlarini) ta'minlaydi, PHP -> saytni mantiqiy amallarini bajaradi(masalan siz login bo'lganmisiz, yoki yo'qmi, login bo'lgan bo'lsangiz sizda nimalar chiqadi, aks xolda nimalar...), MySQL -> PHP bilan hamkorlikda saytga ma'lumotlar bazasidan ma'lumotlarni o'qib olish, yozish, o'zgartirish uchun xizmat qiladi...

Hozirgi kunda internet, juda katta tezlikda rivojlanib ketmoqda. Shu bilan birga internetga oid xar hil terminlar ko'paymoqda. Misol uchun, sayt, portal, veb sahifa,

veb server. Bu terminlarni o'rganish, hozirgi zamon uchun muhim hisoblanmoqda. Shaxsan o'zim bitiruv malakaviy ishinni tayyorlash jarayonida bevosita veb serverlardan biri denwer foydalandim.

Biror bir internet saytga kirish uchun, brouzerga adres yozsangiz, brouzer shu sayt joylashgan kompyuterga, saytdagi ma'lumotlarni ko'rsatish haqida so'rov jo'natadi, kompyuter oddiy temir bo'lgani uchun bu so'rovni tushunmaydi.

Shuning uchun, ya'ni bu so'rovni tushunishi uchun, kompyuterga dastur o'rnatiladi. Mana shu dastur veb dastur deyiladi. Bu kompyuter esa, veb serverga aylanadi. Hozirda veb dastur deyilmasdan, umumiy holda veb server deyilmoqda.

Demak, veb server — kliyentdan kelayotgan so'rovlarni qabul qilib, tegishli javobni jo'natadigan dasturdir. Kliyent sifatida veb brouzer(http, https protokoli orqali), mobil telefon(wap protokoli orqali), ba'zi dasturlar(antiviruslar) bo'lishi mumkin. Veb server orqali butun sayt boshqariladi, ya'ni sayt kataloglariga ruxsatlarni beradi, xavfsizlik jihatidan IP adreslarni blokka oladi, foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish va boshqa ko'plab ishlarni amalga oshiradi.

Veb serverni siz o'z uyingizda yaratishingiz mumkin. Uning uchun bitta kompyuter ajratib, unga biror veb dastur o'rnatasiz va bu dasturni yaxshilab sozlashingiz kerak bo'ladi. So'ng o'z saytingizni shu serverga joylashtirasiz va biror domen sotib olasiz. Bundan kelib chiqadiki, saytingiz ishlashi uchun siz ajratgan kompyuter doim yoqilgan holatda bo'lishi kerak.

Veb serverni tushuntirish uchun bitta lirik chekinish, o'xshatish qilaman(qo'polroq bo'lishi mumkin. Tushuntirish uchun nimalar qilishmidi-a). Biror saytni bitta somsa deb tasavvur qilamiz. Somsa ichidagi masalig'lar, saytning ichidagi ma'lumotlar(matn, rasm, video,..). Bu somsani biror bir inson pishirgan, demak pishirgan odam, veb dasturchidir(kimlardir somsa pishishiga yordam bergan bo'lishi mumkin, bular veb dizaynerlar, verstkachilar). Bu somsani sotish kerak, uning uchun joy topish kerak va ruhsat olish kerak. Bu o'xshatish domen va xostingga mos

tushadi. Sotuvchi bo'lsa, veb serverdir, ya'ni sotishni boshqaradi(puli borlarga sotadi, hohlasa sotmasligi ham mumkin), hullas sotishni boshqaradi.

Veb serverga o'rnatiladigan veb dastur turlari ko'pdir. Eng zamonaviy va eng ommabop dastur bu – albatta “Apache”dir. Apache Software Foundation korxonasi tomonidan chiqarilgan. Quyida ba'zi bir veb serverlarni nomini keltirdim.

**Apache** – Apache Software Foundation.

**IIS** – Microsoft mahsuloti hisoblanadi. Server operatsion tizimlariga o'rnatilgan(Windows Server 2012, Windows Server 2013,..)

**Nginx** – ochiq veb server. Katta hajmdagi saytlar uchun.

**Lighttpd** – ochiq veb server.

**Google Web Server** – Google tomonidan ishlab chiqilgan veb server.

**Cherokee** – web interfeys orqali boshqariladi.

**Rootage** – Java tilida yozilgan veb server.

**THTTPD** – oddiy, kichik hajmdagi, tez va xavfsiz veb server.

## **MySQL**

**MySQL** — bu eng mashhur va juda ko'p foydalaniladigan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi(MBBT) hisoblanadi. Bu tizim juda katta ma'lumotlar bilan ishlash uchun yaratilmagan, aksincha biroz kichik hajmdagi bazalar bilan katta tezlikda ishlash uchun yaratilgan. Uning asosiy ishlash doirasi, saytlar hisoblanadi. Hozirgi kunda juda ko'p sayt va bloklarning ma'lumotlari aynan shu MBBT saqlanadi.

Demak, saytlarning nimalari bazada saqlanishi mumkin? Dastlab, ma'lumotlar saqlash uchun dasturchilar fayllardan foydalanishgan, ya'ni fayl ochilib kerakli ma'lumotlar u yerga saqlanib, kerakli paytda chaqirib ishlatilgan. Keyinchalik fayllardan voz kechilib(noqulayliklar yuzaga kelgan, ya'ni faylni ochish, o'qish, yopish,.. ko'p vaqtni olib qo'ygan, u yerdan qidirish, xullas juda ko'p), ma'lumotlar bazasiga o'tilgan. Bazada saytdagi maqolalar, sayt foydalanuvchilari haqidagi ma'lumotlar, sayt kontentlari, qoldirilgan kommentariyalar, savol-javoblar,

hisoblagich natijalari va shunga o'xshash juda ko'p ma'lumotlar saqlanadi. MySQL shunday ma'lumotlarni o'zida saqlaydi.

**MySQL** — juda katta tezlikda ishlovchi va qulay hisoblanadi. Bu tizimda ishlash juda sodda va uni o'rganish qiyinchilik tug'dirmaydi. MySQL tizimi tex kompaniyasi tomonidan, ma'lumotlarni tez qayta ishlash uchun korxonada miqyosida ishlatishga yaratilgan. Keyinchalik ommalashib, saytlarning asosiy bazasi sifatida yoyildi.

So'rovlar **SQL** tili orqali amalga oshiriladi. Bu **MBBT relyatsion ma'lumotlar baza** hisoblanadi. Bu degani baza jadvallar, jadvallar esa ustunlardan tashkil topgandir.

MySQL MBBTi 2 xil turdagi litsenziyaga ega. Birinchisi tekin, ya'ni MySQLni ko'chirib olish va ishlatish hech qanday harajat talab qilmaydi va GPL(GNU Public Licenseb, GNU) litsenziyasiga asoslanadi. Ikkinchi turi, GPL shartiga ko'ra, agar siz MySQL kodlarini biror dasturingizda ishlatsangiz, bu dasturingiz ham GPL(tekin) bo'lishi kerak. Bu esa dasturchiga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun, bu dasturingizni pullik qilishingiz uchun MySQL pullik litsenziyasini sotib olishingiz kerak.

MySQL logotipi delfin hisoblanadi. Bu delfinni ismi «Sakila»dir. Bu logotipni OpenSource tuzuvchilaridan biri Ambrose Twebaze ga tegishlidir.

MySQL juda ko'p operatsion tizimlar bilan ishlay oladi. Bularni yozadigan bo'lsam: Linux, Mac OS X, UnixWare, Windows 2007, Windows XP, Windows 2010, Windows 2015 ,...

MySQL shved korxonasi MySQL AB ga tegishli bo'lgan, keyinchalik SUN firmasi MySQL ni o'ziniki qilib olgan. Bir necha yil oldin esa, gigant korxonalardan biri Oracle, SUN firmasini sotib oldi va hozirda MySQL Oracle firmasi mahsuloti sifatida chiqib kelmoqda. Bu bir hisobda Microsoft SQL Server ga katta raqobatdosh ekanligini anglatadi.

MySQL bir necha serverlarning bir qismi hisoblanadi. Misol uchun, WAMP, AppServ, LAMP, Denwer,... Kliyentlar MySQL serveriga ma'lum bir kutubxonalar orqali ulanadi. MySQL ga quyidagi dasturlash tillari ulanib ishlashi mumkin: Delphi, C, C++, Java, Perl, Php, Python, Ruby va boshqalar.

Relatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish sistemasi. Turli operatsion sistemalarda qo'llanishga moslashtirilgan Open-Source-mahsulot bo'lib, ko'pchilik dinamik web-sahifalar uchun asos hisoblanadi. MySQL Shvetsiyadagi MySQL AB firmasi tomonida yaratilgan bo'lib, 2008-yilning fevralida Sun Microsystems tomonida sotib olingan. Endlikda dastur kodini yaratishda ushbu firma javobgar. MySQL Server ochiq, yani tekin dasturiy ta'minot bo'lib, General Public License himoyasidadir. MySQL AB/Sun firmasi dastur kodiga mualliflik huquqiga egaligi sababli, ushbu dasturiy ta'minotning kommerzial turi ham bor. MySQL nomining kelib chiqishi aniq emas. 1996-yildan beri ko'plab biblioteka va tool (vosita)lar nomi oldida My prefiksi qo'yila boshlangan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra esa firmani tashkil qilganlardan biri hisoblanuvchi Monty Wideniusning qizi ismidan va SQL, ya'ni Structured Query Language (Strukturaviy so'rovlar tili) birikmasidan tashkil topgan. Unix, MacOS X va Linuxdan tashqari, MySQL Windows, OS/2 va i5/OS (avvalgi OS/400) uchun ham moslashtirilgan. Windows uchun esa ba'zida ayrim cheklanishlar uchraydi. MySQL ko'pincha web-servis uchun ma'lumotlarni saqlashda qo'llaniladi, webserver Apache va PHP bilan birgalikda ishlatiladi. MySQL hozirda 6.000.000 dan ortiq foydalanuvchilar va kuniga 35.000 dan ortiq download qilinadigan dunyoning eng mashhur ma'lumotlarni boshqarish sistemasidir.

### **PHP haqida va uning tarixi**

**PHP** – Script tili bo'lib, Web Serverda o'zgaruvchan HTML fayllarini yaratishda qo'llaniladi. Hozirgi kunda deyarli barcha hosting-provayderlar mazkur tilni qo'llab-quvvatlaydi. Odatda, PHP Ma'lumotlar Bazasi bilan ishlatiladi. PHP GNU GPL litsenziyasi orqali tekin tarqatiladi.

1994 yili php tilinig yaratuvchisi Rasmus Lerdorf o'zining saytiga mehmonlar kirishini hisoblash uchun Perl dasturlash tilida maxsus qobiq yozib amalda qo'llagan. Ko'p o'tmay qobiqni ishlash unumdorligi juda past va sekinligi aniqlanganidan so'ng, dasturlarni yangidan "C" tilida yozib chiqishga to'g'ri keladi. Keyin, dastlabki dastur kodlari muallif tarafidan barchaga ko'rish uchun serverga nashr qilingan. Server foydalanuvchilari kodlar bilan qiziqib, uni ishlatish muxlislari ham paydo bo'lgan. Hademay, bu dasturlar alohida loyihaga aylanib, 1995 yilning iyun oyida dasturiy mahsulot PHP (Personal Home Page) nomi bilan birinchi nashri chiqarildi.

1996 yil aprel oyida dasturlar jiddiy qayta ishlanganidan so'ng, PHP/FI (Personal Home Page / Forms Interpreter) nomi bilan mahsulotning ikkinchi nashri paydo bo'ldi. Bu mahsulot html-kod ichiga yozilib, html-formalarni qayta ishlab, hozirgi PHP dasturlash tilining tayanch imkoniytlarini ichiga olgan. PHP/FI kod yozilishi Perl tiliga juda oxshagan, lekin soddaroq bo'lgan.

1997 yili PHP/FI 2.0 nashri chiqdi. O'sha paytda bu mahsulot bilan dunyo bo'yicha bir necha ming odam foydalanib, taxminan 50 ming domen bo'lib, Internetning 1%-ni tashkil qildi.

1997 yilda Endi Gutmans va Ziv Suraski PHP/FI kodini boshqatdan yozib chiqishdi, chunki eski kod ular ishlatayotgan elektron tijorat tizimlari uchun yaroqsiz edi. Eski kodning mualliflaridan yordam olish uchun ular birlashishni taklif etib, PHP3 nomli loyihani PHP/FI -ni rasmiy vorisi deb e'lon qilishdi. Yangi loyiha uyushgandan keyin PHP/FI loyihasi ishlab chiqarilishi to'xtatilgan.

PHP 3.0 -ning eng kuchli taraflaridan biri uning kengaytirala olinadigan yadrosi(tizimning bosharuv qismi) bo'lib, bundan tashqari, ma'lumot jamg'armalar bilan, turli protokollar va interfeyslar bilan birgalikda ishlash keng imkoniyatlari yaratildi. Muvaffaqiyatga erishishga ancha ahamiyatli fakt bu yangi tilni boyligi va ob'ektlarga mo'ljallangan dasturlashni qo'llay olishi. Yangi loyiha bilan birga nafaqat tilni tashqi, ichki tuzulishi o'zgardi, balki o'zini nomi ham. Endi PHP qisqartmasi "PHP: Hypertext Preprocessor" ma'nosini anglatishi bildirildi.

1998 yilning oxirida PHP foydalanuvchilarning soni o'n minglardan oshdi. Yuz mingdan oshiq veb-saytlar bu tilni qo'llashini e'lon qilishdi. Taxminan Internetning 10% serverlarida PHP 3.0 o'rnatilgan edi.

1998 yilning iyun oyda PHP3 to'qqiz oy ommaviy tekshiruvidan keyin rasman e'lon qilindi. Shu yilning qishida Endi Gutmans va Ziv Suraski PHP yadrosini qaytadan ishlab chiqarishni boshlashgan. Ularning asosiy vazifasi PHP tizimini unumdorligini ko'tarish va kodning modullarini yaxshilash edi.

1999 yilning o'rtalarida birinchi marta taqdim qilingan yangi yadro "Zend Engine" deb nomlangan ("Zend": mualliflar "Zeev" va "Andi" ismlardan tashkil topgan). Uni asosida tuzilgan yangi til PHP4 2000 yilning may oyida rasman chiqarilgan. Unumdorlik yaxshilangandan tashqari, PHP 4.0 muhim yangiliklarga ega bo'lib, sessiyalarni qo'llash, buferli chiqarish, kiritilgan ma'lumotlarni havfsiz qayta ishlash va yana bir necha yangi til tuzuvchilarini paydo bo'lishidan iborat.

Hozirgi kunlarda "Zend Engine" qayta yaxshilanib PHP5 tili ishlab chiqarildi. Asosiy o'zgarishlar ob'ektlarga mo'ljallangan dasturlash modelida bo'lib, tilning imkoniyatlari yanada kengaytirdi.

Bu oddiy skript PHPda dasturlashni o'rganish uchun birinchi qadamiznigz ekanligini tushunib yettingiz deb o'ylayman. Etibor bering HTML kod PHP interpretatori bilan qo'llanmoqda. Сценарий boshlanishi sizni o'yantirishi mumkun: - Bu o'zi сценариймиз? teglari qayerdan keldi? PHPni qulayligi ham shunda. PHP hujjat HTMLdan umuman farq qilmasligi ham mumkun. PHPda сценарий tegi bilan tugaydi. Bu ikkila teg ichida tekst dastur sifatida qayta ishlanadi va HTML hujjat tarkibiga qo'shilmaydi. Agar biron narsani ekranga uzatish kerak bo'lsa echo operatoridan foydalaniladi. Demak, PHPdan mahsus teglar () orasida bo'lmagan har qanday matn brauzerga to'g'ridan to'g'ri uzatiladi. PHPni Perl va Cdan asosiy farqi ham shunda. Perl va Cda chiqarish faqat standart operatorlar orqali amalga oshiriladi. Qo'llanmalarni ajirratish Qo'llanmalar C va Perl kabi ajiratiladi - har bir so'rov nuqtali vergul orqali tunganlanadi. Yakunlash tegi (?>) ham qo'llanma yakuni sifatida qabul

qilinadi: `[code] [/code]` PHP skriptlardagi izohlar Har qanday skriptni izohlarsiz yozish imkoni yo'q. PHPda uch hil izoh turi bor. Misollarda ko'rib chiqamiz: Bir qatorlik izohlar izoh oldidan nima kelishiga qarab qator ohirigacha yoki PHP-blok ogirigacha amal qiladi.

### **CSS 3 haqida ma'lumot**

CSS - bu stillar bilan ishlash uchun mo'ljallangan kodlar majmuasidir. Hozirgi kunga kelib yangi CSS3 versiyasi ishlab chiqilmoqda, lekin hali ko'p brauzerlar bu stillarni aks ettira olmayapti. Shuning uchun CSS3 yaratuvchilari brauzer o'rtasida kelishmovchiliklarni oldini olish maqsadida brauzer turiga qarab har xil prefikslar ishlab chiqishdi va bu prefikslardan CSS3 to'liq yaratilmaguncha ishlatish tavsiya etilgan, CSS3 to'liq yaratilgandan so'ng bu prefikslar olib tashlanadi. Css3 da eng asosiy qo'shilgan stillardan biri bu animastiyalardir, ya'ni stillar almashinish jarayoni birdaniga emas, balki sekin astalik bilan sodir bo'lishidir. Quyida Css3 versiyasiga yangi qo'shilgan ba'zi stillarni misol tariqasida ko'rsatib o'taman.

- Elementlarni(matn, rasm, fon,..) och(прозрачный) ko'rinishda aks ettirish.

`background-color: rgba(11,0,245,0.9);`Bu erda sahifa foniga rang berib, shu rangni 0.9 darajali och tusga keltirilmoqda, tanishing CSS3 ning yangi elementi `rgba`.

- Elementlarning istalgan burchagiga(qismiga) bir vaqtning o'zida har xil rasmlarni joylashtirish. Bu saytni verstka qilish jarayonini yengillashtiradi.

`background:`

`url(top.gif) top left no-repeat,`

`url(center.png) top 11px no-repeat,`

`url(bottom.png) bottom left no-repeat,`

`url(middle.png) left no-repeat;`

- `Resize` buyrug'i. Bu buyruq orqali foydalanuvchi istalgan elementning o'lchamini o'zgartirish mumkin bo'ladi.

```
div.resize{
width: 27px;
height: 38px;
resize: both;
}
```

- CSS3 ning yana bir yangiligi bu – elementlar(shakllar, bloklar) burchagini istalgan radiusda burish mumkinligidir. Ko'p web saytlar forma yaratish jarayonida, formaning burchaklarini burishni verstka paytida biror rasm orqali amalga oshirishadi, bu esa qo'shimcha ish va vaqt yo'qotishga olib keladi, CSS3 da bu muammo bartaraf etilgan va quyidagicha amalga oshirish mumkin bo'ladi.

```
#forma {
border-bottom-right-radius: 2.5em;
border-bottom-left-radius: 1.9em;
border-top-left-radius: 5.4em;
border-top-right-radius: 3.2em;
}
```

- CSS3ning soyalar bilan ishlash qismi. Barcha “p” teglari uchun soyalar hosil qilish.

